



## USTOZLARNING BILIM BERISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIYANING O'RNI VA ROLINI OSHIRISH

Sayfullayeva Malikaxon Abdusalom qizi

Buxoro davlat universiteti, Amaliy psixologiya yo'nalishi  
3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ustozlarda bilim berish ko'nikmalarini rivojlanirishda psixologiyaning o'rni va rolini oshirish. O'qituvchi faoliyatining samaradorligi ko'pgina omillarga bog'liq: iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, tashkiliy va boshqalar. Ular shaxsning ichki olami orqali faoliyatga ta'sir etadi. Turli omillar o'qituvchi faoliyati samaradorligini oshiradi yoki kamaytiradi. Avval ham ta'kidlab o'tilganidek, samaradorlik ko'rsatkichi kuch va vositalarni ongli ravishda qo'llash orqali maqsadga erishishdir.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy o'qituvchi, psixologiya, pedagogik mahorat, pedagogik muloqot ijodkor, notiq, tashabbuskor.

O'qituvchi faoliyatini samaradorligi – bu bajariladigan topshiriqlarga qo'yiladigan talablarga muvofiq ravishda namoyon bo'ladigan shaxsning o'ziga xos xususiyatidir. Boshqacha aytganda, samaradorlik uchun o'qituvchi psixikasining strukturasi va funksiyalari uning faoliyati strukturasi va dinamikasiga muvofiq bo'lishi darkor. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo'yicha ko'plab pedagog va psixolog olimlar o'z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida shakllantirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.

XXI asrga kelib o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

O'qituvchi faoliyatining samaradorligi pedagogik jarayonga ijodiy yondoshishi bilan belgilanadi. O'qituvchining maqsadga yo'naltirilgan ustanovkalari ta'lim, tarbiyaning muammolarini yechishga va talabalar psixik faoliyatini boshqarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ushbu ustanovkalar o'qituvchining pedagogik shart-sharoitni har tomonlama tahlil qilishi natijasidir. Kursning maqsadga yo'naltirilgan ustanovkalari mashg'ulotlarning mazmuni, siyosiy-g'oyaviy darajasi, tarbiyaviy yo'nalganligini oshiradi. Biroq, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ayrim o'qituvchilarning maqsadga yo'naltirilgan ustanovkalarida kursning tarbiyaviy ahamiyati aks etmaydi. Ularning asosiy faoliyati o'quvchilarga imkon qadar ko'proq ilmiy bilimlarni berishga qaratilgan bo'ldi. Ayrim

o'qituvchilar maqsadga yo'naltirilgan ustanovkalarni mashg'ulot rejasiga almashtirib, auditorianing holati inobatga olinmaydi.

Tajribali o'qituvchilarning faoliyatini o'rganish shundan dalolat beradiki, maqsadga yo'naltirilgan ustanovka – bu talabalarning tayyorlik darajasi, fanning vazifa va maqsadlari, real pedagogik imkoniyatlarni inobatga olib tahlil qilishida namoyon bo'lувчи та'limiy va tarbiyaviy yo'nalgalikdir.

O'qituvchi talabada muayyan bir xususiyatni rivojlantirmoqchi bo'lsa, eng avvalo ushbu xususiyatning mutaxassislik nuqtai nazaridan muhimlik darajasini bilishi va uning talaba shaxsi taraqqiyotidagi o'rnini bilishi darkor.

O'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshirish shartlaridan biri – bu ta'limiy va tarbiyaviy topshiriqlarni (vazifalarni) to'g'ri va aniq aniqlashtirish malakasiga ega bo'lishi va shu bilan muvofiq ravishda o'z faoliyati va talaba faoliyatini rejalashtira olishidir.

### **O'qituvchi bilish jarayonlarining o'ziga xos jihatlari**

Psixologiya tafakkur jarayoniga har xil qarashlarga bog'liq holda, masalani yechish davomida o'quvchilarda tafakkurni shakllantirishning turli yo'llarini belgilab beradi. Birinchi nuqtai nazar bilish jarayonining har bir oldingi bosqichi o'zidan bevosita keyin kelayotgan bosqichnn boshlab borishga asoslangandir. Bunday tezis to'g'ri, lekin minimal darajada oldindan ko'rish «bir qadamdan» ko'ra ko'proq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, masala yechish davomida fikran oldindan ko'ra bilish hajmini va darajasini kamaytirishni baholamaslik mumkin emas.

Ikkinchi qarama-qarshi fikr, aksincha, tafakkur jarayonida ham qo'lga kiritilmagan, namoyon qilinmagan natijani, ya'ni noma'lum qarorni oldindan ko'ra bilish davrini orttirib, mavhumlashtirib va ortiq baholab yuboradi. Oldindan ko'rish hamisha faqat qisman va taxminan bo'ladi.

Pedagog tomonidan ko'rsatiladigan yordam va rahbarlik o'quv faoliyati oldidagi qiyinchiliklarni yo'qotishdan emas, balki o'quvchilarning o'zlarini ularni yechishga, yengishga o'rgatishdan iborat bo'lmos'i lozim. O'qituvchi talabalarning faoliyatini uyushtirarkan, kuzatishning, ya'ni ixtiyoriy idrok etishning muhim shaklidan rejali tarzda idrok etishidan foydalanishi zarur.

O'qituvchi yangi o'quv materialining muvaffaqiyatli tarzda idrok etilishini ta'minlanishi uchun o'quvchilarni bunga tayyorlashga, ularning orttirgan tajribasini faollashtirishi va ularni yangi material bilan bog'lashga yordam berishi, o'quvchilar, talabalar oldiga yangi vazifalar qo'ygan holda ularning idrokini yo'naltirishi kerak. Buning uchun o'qituvchining ixtiyoriy idroki faol va yo'nalgan bo'lishi kerak.

O'qituvchi xayoli o'zining aktivligi va faolligi bilan uyg'un bo'lishi kerak. Xayolning qimmati shundan iboratki, u hatto tafakkur uchun kerak bo'lgan to'la va zarur bilimlar bo'limgan joyda ham biror qarorga kelish hamda muammoli vaziyatdan chiqish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, oliy o'quv yurti o'qituvchisi nutqi, diqqati, xotira va xayollari mustahkam va irodasi kuchli bo'lishi talab qilinadi. Pedagog dars berish jarayonida puxta bilimga ega bo'lishi va kasbiy muhim jihatlaridan faollik, bilimdonlik, ziddiyatlarni bartaraf eta olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ta'lim berishga bo'lgan qiziqishga ega bo'lishi va

mas'uliyatli bo'lishi kerak. Shaxsiy manfatidan ko'ra, bilim berishga bo'lgan ma'suliyat hissi ustun bo'lishi kerak. Shuningdek, bilish jarayonlarining o'ziga xos jihatlari pedagogik tafakkuri, idrok va ijodiy xayoli rivojlangan bo'lishi kerak.

Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhim o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat:

- o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashidan iboratdir;
- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;
- olivjanobligi, aqli, farosati, ma'naviy pokligi, ma'naviyat va ma'rifat buyicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;
- o'zini qo'lga ola bilish, sabr-toqatli, bardam, matonatliligidir.

Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomonidan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariiga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z vatani tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;
- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologayasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'limda tarbiya metodikasini egallashi;
- o'z ishiga ijodiy yondashishi;
- bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktikaga ega bo'lishi;
- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi;
- O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi.
- O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.
- O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmg'i lozim.

## **XULOSA**

Hozirgi zamon o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi va uning shaxsiy hamda kasbiy kamolotiga (psixologiyasiga) yuksak talablar qo'yadi:

- a) mamlakatimiz ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining barcha bosqich-larida o'qituvchining shaxsi yuksak ijtimoiy mavqega ega bo'lib, xalqning etnik ongi va tafakkuri namunasi

sifatida e'zozlangan. Zamonaviy o'qituvchi ham ana shunday yuksak ijtimoiy mavqeni egallashi nazarda tutilgan.

b) ilmiy psixologiyaning tahlillariga ko'ra ta'liz va tarbiya shakli, mazmuni va mohiyatiga binoan milliy-etnik hodisa bo'lib, xalqning ongi, qarashlari, qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Tabiiyki, har bir xalqning etnopsixologiyasi va millatga xos idealini o'qituvchi o'z millatining ta'limi va tarbiyasi orqali ro'yobga chiqarishga yo'naltilg'an bo'ladi.

### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bajovich L. Lichnost i yeze formirovaniya v detskim vozraste. M.:2018
2. Vigotskiy L.S. Izbranno'y psixologicheskiy issledovaniye. M.:2016
3. Gonobolin F.N. Kniga ob uchitele. M. 2015.
4. Petrovskiy A.V. Sotsiolnaya psxologiya. M.: 2017.
5. Krutetskiy V.A. Psixologiya obucheniya i vospitaniya shkolnikov. M.: 2009.
6. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. M.,2011y.
7. Byutner. Kak jit s agressivno'm detmi. M., 1991y
8. Obuxova L.F. Detskaya psixologiya. M., 1985y